

## BALIQ VA PARRANDA MAHSULOTLARI UCHUN TABBIY OZUQA CHERNAYA LVINKA MAHSULOTINI YETISHTIRISH

Shaxlo Hoshimova

Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

Jalilova O'lmasoy

Jizzax politexnika instituti talabasi

Daminova Muhayyo

Jizzax politexnika instituti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan mamlakatimizda yetishtirilayotgan parranda va baliq mahsulotlari uchun tabiiy sanitar hisoblangan chernaya lvinka mahsulotini yetishtirish va uning afzalliklarini ko'rsatish bo'yicha iqtisodiy prognozlar keltirilgan. Mualliflar ishonadiki to'plangan tajriba va loyihani asoslash bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar muhislar va mutahassislar uchun dasturul amal vazifasini o'taydi.

**Kalit so'zi:** Amerika pashshasi, chernaya lvinka, ozuqa ba'zasi, tabiiy sanitar, sof mahsulot, iqtisodiy samaradorlik.

Yurtimizda bugungi kun yoshlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ularning bilim zakovatlarini rag'batlantirish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan katta imkoniyatlarning eshiklari keng ochilgan. Tadbirklor tomonidan amalga oshirilayotgan xayrli ishlar bugun mamlakatimiz taraqqiyotini yuqori pog'onaga ko'tarishda dasturulamal vazifasini o'tashi hech shubhasiz. Inson yashar ekan avvalo oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji bo'ladi. Mamlakatimizda go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasida katta o'zgarishlar ham amalga oshirilib kelinmoqda. Parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish bugungi kunda eng ko'p sarmoya keltiradigan sohalardan biridir [1]. Parranda va baliq mahsulotlarining iste'mol qiladigan ozuqalari tarkibida proten miqdori qancha yuqori bo'lsa ularning vazn yig'ish jarayoni ham shuncha yuqori bo'ladi. Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy yetishtirilgan sifatli va arzon parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Shu bilan birga, sohani yanada jadal rivojlantirishga, jumladan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish va tayyor parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari eksportini kengaytirishga to'squinlik qilayotgan qator muammolar rahbariyat va mahaliy hokimiyat tomonidan bartaraf etib kelinmoqda. 2021 yil 14 iyun kuni

Prezidentimizning parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga oid qarori imzolangani buning yorqin da'lili desak mubolag'a bo'lmaydi. Parranda va baliq mahsulotlari ozuqasi uchun kam harajat serdaromad ozuqa manbai sifatida Amerika pashshasidan olinadigan chernaya lvinka mahsulotidir. Oddiy granula yem tarkibida 28% dan 33% proten bo'lsa tabiiy ozuqa chernaya lvinkada esa 66% proten mavjud. Bir dona pashsha kuniga 5 ming dona urug' qo'yadi. Natijada biz birinchi yil harajatlari uchun sarmoya sarflaymiz ammo kelasi yillardan boshlab ozuqasi uchungina pul sarflaymiz. Bozor rastalarida qolib ketadigan pomidor, karam, qand lablagi, sabzi va boshqa ezilib ketgan mahsulotlar chiqitga chiqadi. Biz faqat chiqitga chiqqan mahsulotlarni manziliga keltirish uchun transport harajatlarni qoplaymiz holos [2].



**1-rasm Amerika pashshasi va Chernaya lvinka ko'rinishi**

Davoqqa pashsha yorug'lik va suvni sevadi. Chernaya lvinkani kattartirish uchun esa chiqindilardan foydalanamiz agar bozorlarda chiqindilar to'planmasa yaroqli oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilishga ham to'g'ri keladi. Jizzax viloyati o'zining iqlimi va geografik joylashuvi bilan boshqa viloyatlardan farqli jixatlari juda ko'p. Ayniqsa mahsulotlar yetishtirish va parranda va baliqlarni boqish uchun ham shunday qulay sharoitlarga egadir. Harorat jihati chernaya lvinka uchun muhim hisoblanadi. Xona harorati 25 C° dan pat bo'lmagan holda pashsha boqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu loyihani amalga oshirishni bir necha dalillar bilan misol keltiramiz swot tahliliga ko'ra quydagi jarayonlar amalga oshiriladi[3].

Kuchli tomoni	Zaiflik tomoni
1. Viloyatda ushbu mahsulotga talab borligi 2. Raqobatchilarning mavjud emasligi	1. Noqulay sharoitda pashshalarni tuxum qo'ymasligi
Imkoniyatlar	Xavflar
1. Ozuqa manbai kengayadi. 2. Yuqori go'sht mahsuloti olinadi.	1- Elektr energiyaning tarmoqdan uzilishi.

Bu jarayonlarni iqtisodiy samaradorlik natijalar orqali ko'rib chiqamiz.

№	Nomi	O'lchov birligi	Yillik hizmat quvvati	Narxi	So'mma
1	Chernaya lvinka	Kg	21 600	6 500	121 680 000
	<b>Jami</b>				<b>121 680 000</b>

Ushbu maqola orqali chernaya lvinka mahsulotini yetishtirishning atrof muhitga bo'lgan ta'sir ko'rsatgichlari ham o'rganilib chiqildi.

<b>Zararsizlik nuqtasi (VEP)</b>	
To'liq quvvatdagi jami sotish hajmi (so'm)	42 115 125
Doimiy harajatlar (so'm)	29 032 788
O'zgaruvchan harajatlar (so'm)	442 788
Zararsizlik nuqtasi	<b>70%</b>

Iqtisodiy prognozlarning ko'rib chiqilishi natijasida sohaning yanada yaxshilanishi va bu bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tahliliy na'munalar keltirib o'tildi va natijasi jadval orqali taxlilij jarayonlar amalga oshirildi.



Loyiha bo'yicha kichik protatip yasaldi. Bu kelgusida mahsulot bozorini kengaytirib, soha mutassadilari tomonidan bozor rastalarida tuxum va baliq mahsulotlarini arzon narx navoda sotish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

#### FOYDAANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Справочник по бытовому и промышленному разведению мухи черная лъвинка Россия Бийск-2021
2. PQ- 2021-yil 14 iyun parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga oid qarori.
3. <http://paranda> va baliqlarning oзуqalari.